

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI

Aytmuratova Ulbike Jalgasovna

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E-mail: ulbikeaytmuratova@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7498-6042

Annotatsiya: Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faoliyatini rag'batlantirish va baholashning zamonaviy mexanizmlari tadqiq etilgan. Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, AQSh va Janubiy Koreya tajribasi asosida investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy, soliq, kredit, institutsional va innovatsion instrumentlari tahlil qilingan. Xorijiy tajribani O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, investitsion faoliyat, investitsion samaradorlik, investitsion faollik, investitsiya loyihalari, moliyaviy instrumentlar, soliq imtiyozlari, kapital bozori, innovatsiyalar, ESG.

Abstract: This article examines modern mechanisms for stimulating and evaluating the investment activities of joint-stock companies. Based on the experience of Russia, China, Japan, Germany, the United States, and South Korea, the study analyzes financial, tax, credit, institutional, and innovative instruments for supporting investment. Proposals have been developed for adapting international experience to the practices of joint-stock companies in Uzbekistan.

Keywords: joint-stock companies, investment activity, investment efficiency, investment activity level, investment projects, financial instruments, tax incentives, capital market, innovations, ESG.

Аннотация: В данной статье исследованы современные механизмы стимулирования и оценки инвестиционной деятельности акционерных обществ. На основе опыта России, Китая, Японии, Германии, США и Южной Кореи проанализированы финансовые, налоговые, кредитные, институциональные и инновационные инструменты поддержки инвестиций. Разработаны предложения по адаптации зарубежного опыта к практике акционерных обществ Узбекистана.

Ключевые слова: акционерные общества, инвестиционная деятельность, инвестиционная эффективность, инвестиционная активность, инвестиционные проекты, финансовые инструменты, налоговые льготы, рынок капитала, инновации, ESG.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va xalqaro kapital oqimlarining kuchayishi sharoitida investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari strategik tarmoqlarda faoliyat yurituvchi yirik xo'jalik subyektlari sifatida investitsiya resurslarini jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni samarali tashkil etish, uni baholash mexanizmlarini takomillashtirish va investitsion faollikni rag'batlantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari davlat-xususiy sheriklik, soliq va moliyaviy imtiyozlar, kapital bozorini rivojlantirish, raqamli investitsiya platformalarini joriy etish, innovatsion klasterlar va maxsus iqtisodiy zonalarini rivojlantirish kabi



yo'nalishlarni qamrab olmoqda. AQSh, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Yevropa mamlakatlari tajribasida investitsiya loyihalarini baholashda NPV, IRR, riskga asoslangan tahlil, ESG indikatorlari hamda korporativ boshqaruv standartlaridan keng foydalanilmoqda. Mazkur yondashuvlar investitsiya qarorlarining samaradorligi, shaffofligi va investorlar manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur ilg'or tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish O'zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, kapital bozorini rivojlantirish, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarini transformatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va ularning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda investitsiyalarni jalb etish bilan bir qatorda, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash va natijadorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida investitsion faoliyatning strategik ahamiyati davlat siyosati darajasida ham e'tirof etilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyoti mutlaqo yangi rivojlanish davrini boshdan kechirmoqda. Biz 2016-yildan buyon iqtisodiyotni erkinlashtirish, investorlar uchun jozibador muhit yaratish, global qo'shilgan qiymat zanjirida faol qatnashish, hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini tubdan yangilash, aholi turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha katta islohotlarni olib boryapmiz" [1].

Shuningdek, nutqda so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga 150 milliard AQSh dollaridan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etilgani va ular hisobidan zamonaviy korxonalar tashkil etilgani qayd etilgan. Energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar natijasida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining oshishi hamda eksport salohiyatining kengayishi investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Shuningdek, ayrim aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni baholashning zamonaviy mexanizmlarini keng joriy etish, investitsion qarorlar qabul qilishda moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlarni kompleks hisobga olish hamda innovatsion investitsiyalar ulushini oshirish ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni yanada rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va uni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni boshqarish va baholash samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu bois aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni baholashning zamonaviy, xalqaro standartlarga mos va iqtisodiy risklarni hisobga oluvchi metodologiyasini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash bilan birga, korporativ boshqaruv sifatini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni rag'batlantirish va baholashning xorijiy tajribasini tahlil qilish, zamonaviy baholash va boshqaruv instrumentlarini aniqlash hamda ularni O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda investitsiyalarni baholash va ularning samaradorligini aniqlash asosan bir qator fundamental nazariyalar va modellar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, Jensen va Meckling tomonidan ishlab chiqilgan agentlik nazariyasi (1976) korporatsiyalarda boshqaruv va mulkdorlar o'rtasidagi manfaatlar uyg'unligini ta'minlash nuqtayi nazaridan investitsion qarorlarni baholashda muhim o'rin tutadi [2]. Shuningdek, Damodaran (2012) investitsiyalarni baholashda diskontlangan pul oqimlari (DCF) modellarini asosiy metodologik asos sifatida taklif etgan bo'lib, ushbu yondashuv loyihalarning real qiymatini aniqlashda keng qo'llaniladi [3].

Xalqaro tashkilotlar orasida OECD (2023) korporativ boshqaruv sifati va investitsiya samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, shaffoflik hamda institutsional barqarorlik investitsiya muhitini yaxshilashda hal qiluvchi omil ekanligini ta'kidlaydi [4]. World Bank (2023) tadqiqotlarida esa investitsiya muhitini baholashda institutsional omillar, huquqiy kafolatlar va iqtisodiy barqarorlik asosiy indikatorlar sifatida ko'rib chiqiladi [5].

Mahalliy olimlar tomonidan ham aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyat, korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruv masalalari keng tadqiq etilgan. Xususan, D. G'ozibekov investitsiya loyihasini kelgusida muayyan iqtisodiy samara keltirishi ko'zda tutilgan resurslarni investitsiyalash bo'yicha aniq chora-tadbirlar majmui sifatida talqin etadi [6]. A. U. Burxanov va O. N. Hamdamov aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni boshqarish hamda investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash masalalarini yoritgan [7]. S. E. Elmirzayev tadqiqotlarida esa zamonaviy korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligi, moliyaviy siyosat va kapital bozori bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan [8].



Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda investitsiyalarni baholash tizimi xalqaro standartlar bilan solishtirganda ayrim yo'nalishlarda, xususan, korporativ boshqaruv, risk-menejment va ESG indikatorlarini qo'llash sohasida qisman ortda qolmoqda. Bu esa milliy investitsiya baholash metodologiyasini yanada takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni baholashni o'rganish uchun kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy usullar sifatida qiyosiy tahlil, statistik tahlil, ekonometrik baholash elementlari, tizimli yondashuv hamda ekspert baholash usullari qo'llanildi. Qiyosiy tahlil orqali xorijiy tajriba va milliy amaliyot o'rtasidagi farqlar o'rganildi, statistik va ekonometrik usullar esa investitsiya ko'rsatkichlarining dinamikasini baholash imkonini berdi. Tizimli yondashuv investitsiya jarayonlarini korporativ boshqaruv va moliyaviy muhit bilan bog'liq holda tahlil qilishga xizmat qildi. Tadqiqot ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, World Bank, OECD hisobotlari hamda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlaridan olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi va Yaponiya tajribasini tahlil qilish natijalariga ko'ra, hududlarda investitsiya jarayonlarini tartibga solish umumdavlat investitsiya siyosatini amalga oshirish doirasida, mavjud investitsiya salohiyati hamda hududlarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda mezodarajada tegishli tuzatishlar kiritish orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash joizki, 2020–2022-yillarda davlatlarning investitsiya siyosati jahon iqtisodiyotidagi inqirozli holatlar, pandemiya oqibatlari va moliyaviy resurslar harakatidagi cheklovlar ta'sirida shakllandi. Ushbu davrda budjet mablag'lari asosan iqtisodiyot va biznesni barqarorlashtirishga qaratilgan qisqa muddatli chora-tadbirlarga yo'naltirilib, investitsiya siyosatining ustuvor maqsadi iqtisodiy o'sishni jadallashtirishdan ko'ra iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'ldi.

2023-yildan boshlab makroiqtisodiy sharoitlarning yaxshilanishi natijasida ko'plab davlatlarda ichki talabni rag'batlantirish va investitsiya faolligini iqtisodiy o'sishning muhim drayveri sifatida kuchaytirishga e'tibor qaratildi. Bunda investitsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish instrumentlari mamlakat va hududlarning iqtisodiy tuzilmasi, ishlab chiqarish salohiyati, resurslar bilan ta'minlanganligi hamda moliya bozorining rivojlanish darajasiga qarab farqlanadi.

Mazkur siyosat mamlakat va hududlarni rivojlantirish strategiyalari, davlat dasturlari hamda individual investitsiya loyihalarini orqali quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. korxonalar, tarmoqlar va iqtisodiyotning ustuvor sektorlarini qo'llab-quvvatlash;
2. kichik va o'rta biznes hamda startaplarni rivojlantirish;
3. hududiy budjetlarni qo'llab-quvvatlash;
4. innovatsiyalarni rag'batlantirish;
5. xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;
6. eksport faoliyatini rivojlantirish;
7. kadrlar salohiyatini oshirish;
8. ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash;
9. xorijiy investorlar va yangi faoliyat boshlayotgan biznes subyektlarini rag'batlantirish.

Rossiya, Xitoy, Germaniya va Yaponiya tajribasida investitsiya siyosati davlat tomonidan tartibga solish, hududiy o'zini o'zi boshqarish va strategik rejalashtirish tamoyillari uyg'unligi asosida shakllantirilgan. Ushbu mamlakatlarda investitsiya qarorlarini qabul qilish, kapital qo'yilmalarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash hamda tarmoqlar va hududlar o'rtasida investitsiya resurslarini qayta taqsimlashning institutsional mexanizmlari mavjud.

Mazkur mamlakatlarda hududiy investitsiya siyosatining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi hududiy normativ-huquqiy bazani shakllantirish;
- o'rta va qisqa muddatli strategiyalar, dasturlar va rejalarni ishlab chiqish;
- hududiy investitsiyalarni budjetlashtirish;
- investorlarga moliyaviy va nomoliyaviy imtiyozlar berish;
- investorlarni qo'llab-quvvatlovchi axborot-maslahat va tashkiliy tuzilmalarni tashkil etish;
- davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va ekspertizadan o'tkazish;
- soliqlik va bojxona imtiyozlaridan foydalanishda investorlarga ko'maklashish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun davlat kafolatlari va kafilliklarini taqdim etish;



• hududiy va munitsipal qarz majburiyatlarini chiqarish, fond va qimmatli qog'ozlar bozori institutlarini rivojlantirish orqali qo'shimcha mablag'larni jalb etish.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan mamlakatlarda hududiy investitsiya faoliyatini rag'batlantirishning turli usul va instrumentlari qo'llanilib, ular mamlakatlarning iqtisodiy sharoiti va institutsional xususiyatlariga mos ravishda shakllantirilgan. Mazkur instrumentlarni umumlashtirish asosida hududiy investitsiya faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarini shartli ravishda to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin: ma'muriy, institutsional, tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy instrumentlar.

Ma'muriy instrumentlar hududiy investitsiya siyosatining huquqiy va tashkiliy asoslarini shakllantirish, investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, hududiy strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish hamda davlat investitsiya buyurtmalari va xaridlarini amalga oshirishni qamrab oladi. Shuningdek, ular ayrim tarmoqlar va hududlarni manzilli qo'llab-quvvatlash, hududiy standart va me'yorlarni belgilash hamda investitsiya faoliyatini tartibga solishni nazarda tutadi.

Mazkur yo'nalishda mamlakatlarning iqtisodiy va institutsional xususiyatlaridan kelib chiqib individual mexanizmlar ham qo'llaniladi. Jumladan, Germaniya va Yaponiyada klaster dasturlari, Xitoyda xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish choralari, Rossiyada esa xususiy investorlar uchun ustuvor investitsiya loyihalari ro'yxatini shakllantirish amaliyoti mavjud.

Rossiyada hududiy investitsiya standarti doirasida investitsiya deklaratsiyasi, investitsiya xaritasi, hududiy investitsiya qo'mitalari va "bir darcha" tamoyili asosidagi rivojlanish agentliklari faoliyat yuritadi. Kapital qo'yilmalarni himoya qilish va rag'batlantirish to'g'risidagi bitimlar (SZPK) esa investorlarga soliq imtiyozlari, xarajatlarni qoplash va kredit foizlarini subsidiyalash kabi qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etadi.

Institutsional instrumentlar hududlarda investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy va tashkiliy institutlarni rivojlantirishga qaratilgan. Ular tarkibiga investitsiya va kafolat fondlari, moliya-kredit va sug'urta tashkilotlari, eksportni qo'llab-quvvatlash markazlari, savdo-sanoat palatalari, biznes-inkubatorlar, vechur kompaniyalar, fond birjalari, innovatsion klasterlar, sanoat va texnologik parklar hamda maxsus iqtisodiy zonalar kiradi.

Rossiya, Germaniya, Yaponiya va Xitoyda maxsus iqtisodiy zonalar va yuqori texnologik rivojlanish hududlari investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rivojlantirish va tashqi savdoni kengaytirishning muhim vositasi sifatida qo'llaniladi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash ham investitsion faollikni oshirishning muhim yo'nalishi bo'lib, Rossiyada kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash fondlari hamda "Mening biznesim" markazlari faoliyat yuritisa, Germaniyada innovatsion va yuqori texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlashda EXIST dasturi hamda High-Tech Gründerfonds kabi institutlar muhim o'rin tutadi.

Tashkiliy-boshqaruv instrumentlari investorlar va tadbirkorlik subyektlariga axborot, ekspert va konsalting xizmatlarini ko'rsatish, investitsiya loyihalarini kuzatib borish, mentorlik, vizaviy va ma'muriy ko'mak berish, zarur infratuzilma bilan ta'minlash hamda investitsiya salohiyatini targ'ib qilishni o'z ichiga oladi. "Bir darcha" tamoyili asosidagi xizmatlar Rossiya va Germaniyada investorlar uchun ma'muriy jarayonlarni soddalashtirishning samarali vositasi sifatida shakllangan.

Hududlarning investitsiya salohiyatini namoyish etishda raqamli investitsiya platformalari va reyting tizimlari ham muhim ahamiyatga ega. Xitoyda yagona investitsiya loyihalari platformalari, Rossiyada klaster investitsiya platformalari, Germaniyada biznes platformalari va Yaponiyada turli investitsiya yo'nalishlariga xizmat qiluvchi raqamli platformalar rivojlangan. Investitsiya reytinglari va ekspert baholari esa hududlarning jozibadorligini investorlar uchun yanada shaffof ko'rsatishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy instrumentlar investitsiyalarni rag'batlantirishning eng muhim vositalaridan bo'lib, budjet investitsiyalari, subsidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari, kredit kafolatlari, ilmiy-tadqiqot ishlarini davlat tomonidan moliyalashtirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, yer va boshqa resurslardan imtiyozli foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qamrab oladi. Jahon amaliyotida mazkur instrumentlar fiskal, monetar, pul-kredit va budjet siyosati bilan uyg'un holda qo'llaniladi.

Hududiy davlat boshqaruvi organlarining investitsiya jarayonlariga ta'siri, asosan, investitsiya faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash hamda davlatning bevosita ishtirokini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda budjetlararo transfertlar, dotatsiyalar, subvensiyalar va hududiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish muhim o'rin tutadi. Germaniyada hududlar o'rtasidagi soliq tushumlarini vertikal tenglashtirish tizimi ushbu mexanizmning samarali namunalaridan biridir.

Umuman olganda, xorijiy tajriba hududiy investitsiya faoliyatini rag'batlantirishda alohida bir instrumentdan foydalanish emas, balki ma'muriy, institutsional, tashkiliy-boshqaruv va iqtisodiy mexanizmlarni o'zaro uyg'unlashtirish yuqori samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvni O'zbekiston hududlarining iqtisodiy salohiyati va institutsional xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy amaliyotga moslashtirish investitsion faollikni oshirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi (1-jadval).



1-jadval
Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni rag'batlantirishda
qo'llaniladigan asosiy iqtisodiy instrumentlarning xorijiy tajribasi¹

Usullar	Instrumentlar	Rossiya	Xitoy	Yaponiya	Germaniya
Budjet instrumentlari	Budjetdan to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish (budjet investitsiyalari)	+	+	+	+
	Budjet mablag'lari asosida hamkorlikda moliyalashtirish	+	+	+	+
	Budjet subsidiyalari	+	+	+	+
	Davlat grantlari	+	+	+	+
	Maqsadli budjetdan tashqari investitsiya fondlari orqali moliyalashtirish	+	+	+	+
	Budjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirish	+	+	+	+
	Budjet transfertlari (subvensiyalar)	+	(+)	+	+
	Soliq va boshqa xarajatlarni qoplash mexanizmi	+	(+)	(+)	(+)
	Budjet dotatsiyalari	+	+	+	+
	Davlat-xususiy sheriklik (DXSh)	+	+	+	+
Soliq instrumentlari	Soliq imtiyozlari	+	+	+	+
	Soliq kreditlari	+	+	+	+
	Investitsion soliq kreditlari	+	+	+	+
	Soliqlardan ozod qilish mexanizmi	(+)	(+)	(+)	(+)
Kredit-pul instrumentlari	Foizsiz kreditlar	+	+	+	+
	Imtiyozli kreditlar (pasaytirilgan foiz stavkasi bilan)	+	+	+	+
	Kafolatlangan kreditlar	+	+	+	+
	Maqsadli kreditlar	+	+	+	+
	Kredit kafolatlari va kafilliklar	+	+	+	+
	Venchur moliyalashtirish	+	+	+	+
	Korporativ va budjet obligatsiyalari chiqarish	+	+	+	+
	Imtiyozli amortizatsiya siyosati	+	+	+	+
	Davlat buyurtmalari tizimi	+	+	+	+
	Kreditlarni sug'urtalash va qayta moliyalashtirish	(+)	(+)	(+)	(+)
	Kraudfanding mexanizmlari	+	+	+	+
Antimonopol instrumentlar	Nazorat narxlar tizimi	+	+	+	+
	Narxlarni subsidiyalash	+	+	+	+
Tashqi iqtisodiy instrumentlar	Bojxona to'lovlari va soliqlar bo'yicha imtiyozlar	+	+	+	+
	Bojxona bojlari va soliqlardan ozod qilish	+	+	+	+
	Eksportni sug'urtalash	+	+	+	+
	Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash	+	+	+	+
Yer resurslari instrumentlari	Yer uchastkalarini ijaraga berish bo'yicha imtiyozlar	+	+	+	+
	Yerdan foydalanishning imtiyozli shartlari	+	+	+	+

Izoh: "+" – mazkur instrument amaliyotda faol qo'llaniladi; "(+)" – instrument cheklangan miqyosda yoki ayrim hudud va tarmoqlarda qo'llaniladi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda investitsiyalarni rag'batlantirishda soliq usullari va instrumentlaridan faol foydalanilib, investorlar uchun turli soliq imtiyozlari va preferensiyalar qo'llanildi. Xitoy, Rossiya va Yaponiyada maxsus iqtisodiy zonalar, ustuvor tarmoqlar, xorijiy investorlar, kichik va o'rta biznes hamda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan soliq mexanizmlari rivojlantirildi. Xitoyda 2025-yildan boshlab belgilangan shartlarga javob beruvchi xorijiy investorlarning mamlakat hududidagi to'g'ridan-to'g'ri

¹ Manba: muallif ishlanmasi.



qayta investitsiyalarini rag'batlantirish uchun investitsiya summasining 10 foizi miqdorida soliq krediti qo'llanila boshlandi [9].

Rossiyada Kapital qo'yilmalarni himoya qilish va rag'batlantirish to'g'risidagi bitimlar (SZPK) doirasida investorlar uchun ayrim soliq va tartibga solish shartlarining barqarorligini ta'minlash mexanizmi qo'llanilib, uzoq muddatli investitsiya loyihalarining investitsion muhitini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

Investitsion faollikni oshirishning muhim iqtisodiy instrumentlaridan biri subsidiyalash hisoblanadi. Ushbu mexanizm investitsiya loyihalarini, innovatsiyalar, infratuzilma va ishlab chiqarishni rivojlantirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllarida namoyon bo'ladi. Rossiyada, xususan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit foizlarini subsidiyalash va rivojlanish institutlari orqali imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalaniladi.

Budjet mablag'lari va korxonalarning o'z mablag'lari yetarli bo'lmagan sharoitda kreditlash va xususiy kapital investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Rossiyada davlat kafolatlari va rivojlanish institutlari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlari, Germaniyada esa KfW orqali investitsiyalar va biznes loyihalariga uzoq muddatli hamda imtiyozli kreditlar ajratish amaliyoti rivojlangan.

Germaniyada innovatsion va yuqori texnologiyali startaplar hamda scale-up kompaniyalarini moliyalashtirishda KfW va KfW Capital ishtirokidagi venchur kapital mexanizmlari, jumladan Deutschlandfonds va Scale-up Direct dasturlaridan foydalanilmoqda. Ushbu mexanizmlar xususiy kapitalni investitsiya jarayonlariga jalb qilish va yuqori o'sish salohiyatiga ega texnologik kompaniyalarni moliyalashtirishni kengaytirishga xizmat qilmoqda [10].

Umuman olganda, zamonaviy xorijiy tajribada investitsiyalarni rag'batlantirish siyosati hududlarning uzoq muddatli ixtisoslashuvi, investitsion salohiyati va institutsional rivojlanishini hisobga olgan holda shakllantirilmoqda. Bunda soliq va moliyaviy imtiyozlar, subsidiyalar, kredit mexanizmlari, davlat kafolatlari, raqamli platformalar hamda institutsional qo'llab-quvvatlash vositalari o'zaro uyg'unlashtiriladi. Asosiy e'tibor yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, raqamlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilib, mazkur yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim asos yaratadi (2-jadval).

2-jadval.

Xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlari investitsion faoliyatining ustuvor va istiqbolli yo'nalishlari²

Mamlakat	Asosiy (ustuvor) yo'nalishlar	Istiqbolli yo'nalishlar
Xitoy	Sun'iy intellekt, yarimo'tkazgichlar ishlab chiqarish, elektromobillar, qayta tiklanuvchi energiya, raqamli iqtisodiyot, biotexnologiyalar, 5G va 6G texnologiyalari	Kvant hisoblash texnologiyalari, aqlli shaharlar, vodorod energetikasi, robototexnika, kosmik texnologiyalar
Rossiya	Energetika, agrosanoat majmuasi, IT sektori, logistika, farmatsevtika, import o'rini bosuvchi ishlab chiqarishlar	Sun'iy intellekt, mikroelektronika, dron texnologiyalari, yangi materiallar, raqamli sanoat platformalari
Yaponiya	Robototexnika, avtomobilsozlik, elektronika, yarimo'tkazgichlar, tibbiyot texnologiyalari, yashil energetika	Vodorod iqtisodiyoti, aqlli infratuzilma, qarib borayotgan aholi uchun texnologiyalar (Silver Economy), kvant texnologiyalari
Germaniya	Mashinasozlik, avtomobilsozlik, Industry 4.0, yashil energetika, biotexnologiyalar, kiberxavfsizlik	Sun'iy intellekt, yashil vodorod, uglerod neytral texnologiyalar, aqlli ishlab chiqarish tizimlari
AQSh	Sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar, mudofaa sanoati, biotexnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar (FinTech)	Kvant texnologiyalari, kosmik iqtisodiyot, generativ AI, neyrotexnologiyalar
Janubiy Koreya	Yarimo'tkazgichlar, elektronika, avtomobilsozlik, robototexnika, telekommunikatsiyalar	6G texnologiyalari, AI chipar, aqlli zavodlar, vodorod energetikasi
O'zbekiston	Kimyo sanoati, energetika, qishloq xo'jaligi, transport-logistika, raqamli iqtisodiyot, to'qimachilik sanoati	Yashil energetika, FinTech, IT xizmatlari eksporti, sanoat klasterlari, sun'iy intellekt texnologiyalari

2 Manba: muallif ishlanmasi.



Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari yuqori texnologiyalar, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va innovatsion ishlab chiqarish tarmoqlariga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari investitsion strategiyalarini shakllantirishda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga investitsiyalarni ko'paytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion faolligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- investitsiyalarni yuqori qo'shilgan qiymat va eksport salohiyatini ta'minlovchi ustuvor tarmoqlarga yo'naltirish;
- energetika, transport-logistika, raqamli infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va yashil iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik asosidagi uzoq muddatli loyihalarni kengaytirish;
- ichki moliyaviy resurslarni safarbar qilish, kapital bozorida mablag' jalb etish va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishga asoslangan zamonaviy investitsion boshqaruv modelini joriy etish;
- tarmoqlararo va hududlararo kooperatsiyani, sanoat klasterlari va ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish;
- investorlarni "bir darcha" tamoyili asosida qo'llab-quvvatlash va investitsiya qarorlarining shaffofligini oshirish;
- investitsiya loyihalari, moliyalashtirish manbalari va davlat qo'llab-quvvatlash choralari birlashtiruvchi yagona raqamli platformalarni rivojlantirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish;
- innovatsion, yuqori texnologiyali, eksportbop va ekologik barqaror ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish;
- ESG tamoyillari, korporativ boshqaruv standartlari va barqaror rivojlanish mezonlarini investitsiyalarni baholash tizimiga integratsiya qilish.

Umuman olganda, xorijiy tajriba investitsion faollikni rag'batlantirishda qulay institutsional muhit, moliyaviy va soliq rag'batlari, rivojlangan kapital bozori, zamonaviy investitsiya infratuzilmasi hamda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash muhimligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlariga bosqichma-bosqich joriy etish investitsion jozibadorlik va loyihalar samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va inklyuziv rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining yillik yig'ilishidagi nutqi. 04.05.2026. <https://president.uz/oz/lists/view/9173>
2. Jensen M., Meckling W. (1976). Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure.
3. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. 2012.
4. OECD Corporate Governance Factbook. 2023.
5. World Bank. World Development Report: Investment Climate. 2023.
6. G'ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: "Moliya", 2003. – 332 b.
7. Burxanov A.U., Hamdamov O.N. Moliyaviy menejment: darslik. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 468 b.
8. Elmirzayev S., Toshmurodova B. Korporativ moliya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 265 b. ISBN 978-9943-948-85-1.
9. https://fgk.chinatax.gov.cn/zcfgk/c102416/c5241515/content.html?utm_source
10. https://www.kfw.de/About-KfW/Newsroom/Latest-News/Deutschlandfonds.html?utm_source



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>